O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

QORAQALPOG‘ISTON TIBBIYOT INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi
№ BD 24/11- 6/3.04
« 12 » 08 2024 yil

“TASDIQLAYMAN”
Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti
rektori O.A. Ataniyazova
12 « 08 » 2024 yil

NEONATOLOGIYA

FANIDAN MODUL DASTURI
OLIY TA’LIM

4 -kurs talabalari uchun

Bilim sohasi – 900000 - «Sog‘liqni saqlash va ijtiomiy ta’minot»
Ta’lim sohasi – 910000 - «Sog‘liqni saqlash»
Ta’lim yo‘nalishi 60910200 – «Davolash ishi»

Nukus – 2024

Fan/modul kodi	O‘quv yili 2024-2025	Semestr 8	Kreditlar 1,5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili qoraqalpoq		Xaftadagi dars soatlari 54	
1. Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)		Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Neonatologiyada hamshiralik ishi	36		18	54

2. **I. O‘quv modulining dolzarbligi va oliy ta’limdagi o‘rni**

1.Modulni o‘qitishdan maqsad - talabalarda chaqaloqlarni tekshirish, jismoniy rivojlanish monitoringini o‘tkazish, ovqatlantirish, chaqaloqlik davrida uchrovchi kasalliklarni erta tashhislash, davolash, profilaktika va reabilitatsiya qilish choralarini belgilash bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

2.Modulning vazifalari:

– sog‘lom va bemor chaqaloqlar va ularning ota-onasi bilan muloqat qilishni o‘rgatish;
– tabiiy, sun‘iy va aralash ovqatlantirishni o‘rgatish;
– chaqaloqlarda uchraydigan kasalliklarning tasnifi, klinik ko‘rinishlari, asoratlari, davolash tamoyillarini o‘rgatish;
– tekshirish usullari rejasini tuzish va UASh taktikasini belgilashni o‘rgatish;
– klinik tashhisni qo‘yish va qiyosiy taqqoslashni o‘rgatish;
– bemor chaqaloqlarni reabilitatsiya va dispanserizatsiya qilish bo‘yicha bilimni shakllantirish;
– kasalliklarni davolash va oldini olishning zamonaviy usullari to‘g‘risidagi ilmiy adabiyotlardan foydalanishni o‘rgatish.

III ASOSIY NAZARIY QISM (Ma’ruza mashg‘ulotlari)

***3.1.* Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

VIII- semestr

1-mavzu. Perinatal va neonatal davr muammolari. Ko‘krak suti bilan oziqlantirish. (JSST dasturi).

2-mavzu Chaqaloqlarda sariqlik. Chaqaloqlarda giperbilirubinemiyaning sabablari, klassifikatsiyasi. Chaqaloqlar gemolitik kasalligi diagnostikasi, dispanserizatsiya va profilaktikasi.

3-mavzu. Homila ichi infeksiyalari. Bolalarda homila ichi infeksiyalari. TORCH sindromi diagnostikasi, dispanserizatsiya va profilaktikasi.

III Moduldagi amaliy (laboratoriya) mashg‘ulotlar mavzulari, tashkil etish bo‘yicha umumiy ko‘rsatma va tavsiya:

3.2.1. Amaliy mashg‘ulotlar mavzulari ro‘yxati:

***8*-semestr**

1-mavzu. Chaqaloqlik davri fiziologiyasi. Moslashuv jarayonini aks ettiruvchi holatlar (chegara, tranzitor yoki fiziologik holatlar). Chaqaloqlarni ko‘krak suti bilan ovqatlantirish tamoyillari.

2-mavzu. Kam vazn bilan tug‘ilgan chaqaloqlar. Muddatidan oldin tug‘ilishning sabablari, morfologik va funksional belgilari.

3-mavzu. Homila ichi gipoksiyasi. Chaqaloqlar asfiksiyasi. Reanimatsiya va intensiv davolashni xalqaro mezonlari.

4-mavzu Chaqaloqlarda sariqlik sindromi.

5-mavzu. Homila ichi infeksiyalari.

6-mavzu. Chaqaloqlarda terining yiringli kasalliklari

3.2.2. Modulni o‘qitish davomida egallanadigan amaliy ko‘nikmalar va kompetenciyalar:

Modul davomida egallanadigan amaliy ko‘nikmalar ro‘yhati:

“Neonatologiya” fani moduli bo‘yicha klinik amaliyotni o‘tish davrida talabalar amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishlari ko‘zda tutilgan.

1. Chaqaloqlarda shartsiz reflekslarni aniqlash.
2. Bolani ko‘krakka qo‘yish, “Kenguru” texnikasini, ko‘krak sutini sog‘ish, bolani shishachadan ovqatlandirish
3. Yangi tug‘ilgan chaqaloqni jismoniy rivojlanishi va etukliginibaholash;
4. Soglom va kasal chaqaloqni ovkatlantirish usullarini ko‘llash; yangitug‘ilgan chaqaloqni parvarishlash asoslari;
5. Kramer shkalasi yordamida sariklik darajasini;
6. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni immunoprofilaktikasini o‘tkazishni;
7. Nazogastral zondlash texnikasi.

IV Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar, tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

4.1. Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etilgan mavzular:

VIII-semester

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzular ro‘yxati:

1. Neonatolog ishida etika va deontologiya.
2. Diabetik fetopatiya.
3. Yangi tug‘ilgan chaqaloqda alkogol sindromi.
4. Chaqaloqda gemorragik kasallik.
5. Chaqaloqda qusish sindromi.
6. Neonatologiyada yatrogeniya.
7. Chaqaloqlarda to‘satdan o‘lim sindromi.
8. Chaqaloqlarda kandidozlar.

V Ta’lim natiyjalari: Kasbiy kompetentsiyalar

5.1. Modul davomida egallanadigan kompetentsiyalar (nomi, kodi) ro‘yxati:

UK 1[1]. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo‘lish;
UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;
UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;
UK 4. O‘z-o‘zini rivojlantirishga, anglashga, o‘qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;
UK 5. Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo‘llashga tayyorlik;
UKK 1[2]. Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;
UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og‘zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;
UKK 3. Tibbiy hujjatlarni yuritishga tayyorgarlik;
UKK 4. Kasbiy muammolarni hal qilishda dori vositalarini va ularning kombinatsiyalarini tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik;
UKK 5. Bemorlarga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatishni tashkil etish va dastlabki tibbiy

sanitar yordam ko'rsatishni ta'minlashga tayyorlik;
UKK 6. Tibbiy yordam ko'rsatishda ko'zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik.

5.2. Ta'lim natiyjalari

Modulni yakunlaganda talaba biladi:

Amaliy mashg'ulotda amaliy ko'nikmalarga o'rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Birinchi bosqich – mashg'ulotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqgan holda o'rganilayotgan amaliy ko'nikmani o'rganish motivatsion asosi aniqlanadi, uning nazariy jihatlari muhokama qilinadi. Amaliy ko'nikmalarni amalga oshirish uchun kerakli asbob-anjomlar ishlash mexanizmi, ishlatish qoidalari bilan talabar tanishtiriladi. Birinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedrada barcha asbob anjomlar mavjud va ishchi holatda bo'lishi lozim.
2. Ikkinchi bosqich – amaliy ko'nikmani namoyish qilib berish va ko'p marta mashq qilish. Bu bosqichni amalga oshirish uchun amaliy ko'nikmalarni qadamma-qadam algoritmi pedagog tomonidan va videofilmlar orqali namoysh etiladi, algoritm asosida bosqichma bosqich to'g'ri bajarishga alohida e'tibor qaratiladi. Talaba amaliy ko'nikmani mustaqil, biroq pedagog nazorati ostida mulyajlar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlarda, ko'p marta mashq qilib o'rganadilar. Boshida barcha bosqichlarini alohida, keyinchalik umumlashtirgan holda to'liq va to'g'ri bajara olgandan so'ng bemorda qo'llashga ruhsat beriladi (imitatsion trening). Ikkinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan amaliy ko'nikmalar qadamma qadam algoritmi va videofilmi, o'quv-uslubiy qo'llanmasi, bajarish sxemasi yoki texnikasi va h.k., baholash mezonlari ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Mulyajlyar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlar, imitatorlar, asbob anjomlar bo'lishi lozim va kerakli shart sharoitlar (maksimal darajada ish sharoitiga yaqin modellashtirilgan) yaratilishi lozim. Bu bosqichda pedagog nazorat qiladi va kerak bo'lganda talabalar ishidagi xatoliklarni to'g'irlaydi. Bu jarayonda talaba harakatlari videotasvirga olinib o'ziga namoyish etilishi, tanqidiy muhokama qilinishi mumkin. Talaba, uning xatosi nimada ekanligini, o'qituvchiga va boshqa talabalarga tushuntirib beradi va so'ngra muolajani takrorlaydi. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa talabalar ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda ishtirok etadilar. Amaliy ko'nikma avtomatizm darajasigacha etkazilishi maqsadga muvofiq.
3. Uchinchi bosqich - o'rganilgan bilim va amaliy ko'nikmani bemorda qo'llash. Bu bosqichda talaba o'zlashtirilgan bilim va amaliy ko'nikmani turli xil klinik holatlarda (shu jumladan shoshilinch holatlarda) qo'llashga, olingan natijalarni tahlil qilishga va shu ma'lumotlar asosida harakat taktikasini belgilashga pedagog nazoratida o'rgatiladi. Uchinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan o'quv, uslubiy qo'llanmalar, fotosuratlar, vaziyatli masalalar va testlar to'plami, keyslar, klinik protokollar, diagnostika va davolash standartlari, o'rgatuvchi kasallik tarixlari va ambulator kartalar va x.k. ishlatilishi lozim. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa talabalar nafaqat ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda balki komandada ishlashda ishtirok etadilar.
4. To'rtinchi bosqich – hulosa. Bu bosqichda pedagog talaba tomonidan olingan bilim va egallagan ko'nikmani bemorlarda, turli hil vaziyatlarda, faoliyat jarayonida to'g'ri va to'liq qo'llay olishiga ishonch hosil qilishi kerak va shunda amaliy ko'nikma o'zlashtirildi deb hisoblanadi. To'rtinchi bosqichni amalga oshirish uchun talaba bemor bilan mustaqil ishlashi pedagog tomonidan nazorat qilinadi, tibbiy hujjatlarni, kuratsiya natijalari

talabalarning ishchi daftarlarida yozilishlari o'qituvchi tomonidan baholanadi.

Modulni yakunlaganda talaba bajara oladi:

Mashg'ulot so'nggida o'qituvchi har bir talabaning amaliy ko'nikmani o'zlashtirganligini tasdiqlaydi. Talaba amaliy ko'nikmani o'zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg'ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o'zlashtirish tavsiya etiladi va pedagogga qayta topshiradi. Talaba barcha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirgan holda modulni o'zlashtirgan hisoblanadi.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari

1.ma'ruzalar;
2.interfaol keys-stadilar
3. amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
4. guruhlarda ishlash;
5.taqdimotlarni qilish;

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Modul bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish turlari va nazorat me'zonlari

Oliy ma'lumotli hamshiralar Neonatologiya moduli bo'yicha nazorat turlari va nazorat me'zonlari haqidagi ma'lumot modul bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Talabalarning modul bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- Joriy nazorat (JN);
- Oraliq nazorat (ON).

№	Baholash turi	Kredit soni
1.	Joriy nazorat	1,5
2.	Oraliq nazorat	0
	JAMI	1.5

5.Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manba'lari

Asosiy adabiyotlar:

1. Шабалов Н.П. Неонатология. 1-2 том.Учебник. Москва. Медицина. 2016.
2. Шабалов Н.П. Неонатология. Учебник. Москва. Медицина. 2020 й. (электрон)

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Bolalar kasalliklarini integratsion usulda olib borish. O'quv qo'llanma. UzRSSV/YuNISEF, 2003
2. Неонатология под редакцией Т.Л.Гомелла, М.Д.Каннигам. Учебник. М. Медицина 2010 г.
3. Ko'krak suti bilan boqish. O'quv qo'llanma. O'zRSSV/YuNISEF, 2013.
4. Nelson Textbook of Pediatrics, 20 editions. Robert M. Kliegman, Bonita Stanton, Joseph St. Geme., Elsevier, 2016.

Internet saytlari:

1. www.tma.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.medlincs.ru
4. www.medbook.ru.

Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Institut kengashida tasdiqlangan "12" 08. 24

Fan/modul uchun ma'sullar:

A.M.Koshanova. Qoraqalpog'iston Tibbiyot Instituti «Akusherlik, ginekologiya va neonatologiya» kafedrasi assistenti.

Taqrizchilar:

M.K.Kurbanazarov – PhD. Qoraqalpog'iston Tibbiyot Instituti, O'quv ishlari bo'yicha prorektor.

A.N.Kalandarova – t.f.d. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Ona va bola skrining markazi direktori